SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.B.09.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

MO‘MINOV DILSHODJON YAXSHIBOY O‘G‘LI

O‘RTA ZARAFSHON HAVZASI QIRQQULOQSIMONLARI (POLYPODIOPSIDA)

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 581.: 582.394.2

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Mo‘minov Dilshodjon Yaxshiboy o‘g‘li
O‘rta Zarafshon havzasi Qirqquloqsimonlari (Polypodiopsida) 3

Муминов Дилшоджон Яхшибой угли
Папоротниковидные (Polypodiopsida) Среднезарафшанского бассейна 21

Muminov Dilshodjon Yakhshiboy ugli
Ferns (Polypodiopsida) of the Middle Zerafshan basin 43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 47

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.B.09.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

MO‘MINOV DILSHODJON YAXSHIBOY O‘G‘LI

O‘RTA ZARAFSHON HAVZASI QIRQQULOQSIMONLARI (POLYPODIOPSIDA)

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/B1374 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Xaydarov Xislat Kudratovich** Biologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Mavlonov Xudargan** Biologiya fanlari doktori, professor
	Jo‘ramurodov Inomjon Jalilovich PhD, katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.B.09.10 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “3” dekabr kuni soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15-uy. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti binosi 2-qavat majlislar zali. Tel.: (+99866) 240-38-47, faks (+99866) 239-11-51, E-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (163 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 240-38-47.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “25” noyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil “____” noyabr № 14 sonli reestr bayonnomasi).

T.F. Rajabov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d.

A.N. Xujanov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.f.d. (PhD), dotsent

A.R. Jabborov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

CamScanner yordamida skanerlangan

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida mahalliy va global flora xilma-xilligini o‘rganish, himoyaga muhtoj turlarni saqlab qolish va muhofaza qilishga qaratilgan xalqaro dasturlarni takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu borada, jumladan, mahalliy va global floraning tarkibi hamda kelib chiqish areallarini aniqlash, turlarning xalqaro bazalardagi ma’lumotlarini yaratish, yo‘qolib ketish xavfi ostidagi tur populyatsiyalarini saqlab qolishning samarali usullari ishlab chiqilmoqda. Flora tarkibini zamonaviy taksonomik va geobotanik yondashuvlar asosida qayta baholash, biologik resurslardan oqilona foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ta’kidlash lozimki, so‘nggi yillarda o‘simlik turlari tarkibida yuz berayotgan o‘zgarishlar, tarixiy va zamonaviy ma’lumotlar o‘rtasidagi tafovutlar hamda mahalliy floraning hozirgi holati to‘g‘risida ishonchli ma’lumotlarning yetishmasligi floraning zamonaviy holatini baholashda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Bundan tashqari, turlar bioxilma-xilligining holati va ekologik xususiyatlarini baholash hamda ularni samarali muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda jahonda biologik xilma-xillikni saqlash va tabiiy ekotizimlar barqarorligini ta’minlash dolzarb ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Turli xil omillar ta’sirida hamda iqlim o‘zgarishlari natijasida ko‘plab o‘simlik turlarining tabiiy populyatsiyalari kamayib bormoqda. Bu esa flora tarkibini o‘rganish va muhofaza qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarning ahamiyatini oshirmoqda. Ayniqsa, ekologik omillarga ta’sirchan bo‘lgan qirquloqsimonlar bioindikator organizmlar sifatida atrof-muhit holatini baholashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu sababli ularning tarqalishi, ekologik xususiyatlari va populyatsion holatini o‘rganish biologik monitoring hamda bioxilma-xillikni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda biologik xilma-xillikni saqlash bilan bog‘liq muammolarni hal etishda flora tarkibini har tomonlama o‘rganish, turlarning sistematik holati, ekologiyasi, geografik tarqalishi hamda evolyutsion shakllanish xususiyatlarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu jihatdan, muayyan hududlarda uchraydigan qirquloqsimonlarning floristik tarkibini tadqiq etish, ularning bioekologik xususiyatlari va tarqalish qonuniyatlarini aniqlash zamonaviy botanika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda biologik xilma-xillikni muhofaza qilish hamda o‘simlik resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida mahalliy flora tarkibining taksonomik xilma-xilligini o‘rganish, o‘simliklarning tabiiy yashash muhitlarini saqlash va o‘simlik xomashyosi zaxiralarini baholashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son[1] “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Farmonida atrof-muhitni muhofaza qilish va biologik resurslarni saqlashga oid muhim ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Shu bilan birga, kamyob va yo‘qolib borayotgan o‘simlik turlarining tarkibini

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-sonli “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

aniqlash, o‘simlik resurslaridan oqilona foydalanish, jumladan, floraning tarkibiy qismi hisoblangan qirqquloqsimonlarning taksonomik tarkibini aniqlash, ularning zamonaviy ro‘yxatini tuzish, ekologik holatini baholash, bioxilma-xillik darajasini aniqlash hamda muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

2019-yil 11-iyundagi 484-son “2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 20-maydagi PQ-251-son “Dorivor o‘simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahonda Попов (1968), Tryon (1982), Шмаков (2000), Калюжный (2020) va boshqa olimlar tomonidan Polypodiopsida sinfi vakillarini klassifikatsiyaga solish, ularning tarixiy kelib chiqishi hamda floradagi ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Qirqquloqsimonlarning biologik xususiyatlari, jumladan barg, poya, ildiz, generativ organlarining rivojlanishi hamda ekologik xususiyatlarini o‘rganishga oid tadqiqotlar Gureeva (2001), Strasburger (2007), Christenhusz (2014) kabi olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Dunyoda qirqquloqsimonlarning filogenezini gen markerlar asosida tahlil qilish, ularning gibridizatsiya xususiyatlarini o‘rganish hamda ushbu ma’lumotlar asosida evolyutsion shajarasini tiklashga oid tadqiqotlar Hennipman (1995), Smith va boshq. (2006), Schneider (2007), Kuo (2016), Zhang (2022) ishlarida o‘z aksini topgan.

Respublikamizda Polypodiopsida sinfiga mansub o‘simliklarni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar, asosan, boshqa yuksak o‘simliklar bilan birgalikda olib borilgan. Jumladan, О. Федченко (1901), Б. Федченко (1915), А. Введенский (1923), К. Закиров (1955-1961), K. Tojiboyev va boshq. (2018), U. Qodirov (2020) kabi olimlarning ishlarida mazkur guruhga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlar O‘rta Zarafshon havzasida qirqquloqsimonlarning turlar tarkibi va ularning hozirgi holatini to‘liq ochib bera olmaydi. Respublikamizda, xususan O‘rta Zarafshon hududida qirqquloqsimonlarning turlar tarkibini o‘rganishga qaratilgan aniq maqsadli va kompleks ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan.

Shu bois, O‘zbekiston hududida turli yillarda to‘plangan gerbariy namunalarini tizimli ravishda tahlil qilish, ularda qayd etilgan qirqquloqsimonlarning tarqalishi, uchrash joylari va ekologik sharoitlari haqidagi ma’lumotlarni aniqlashtirish hamda zamonaviy elektron bazalarida mavjud ma’lumotlarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Gerbariy namunalarini raqamli ma’lumotlari bilan birgalikda tahlil qilish qirqquloqsimonlarning O‘zbekiston

hududidagi tarixiy va zamonaviy tarqalishini qiyosiy baholash, mavjud ma’lumotlardagi bo‘shliqlarni aniqlash hamda turlarning tarqalish xususiyatlarini yanada aniqroq yoritish imkonini beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, ilmiy-tadqiqot ishlar rejasiga muvofiq (№SBio-03) “Janubiy-G‘arbiy O‘zbekiston florasining bioxilma-xilligini o‘rganish, innovatsion tadqiqot o‘tkazish va ularni muhofaza qilishning biologik asoslarini aniqlash” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O‘rta Zarafshon havzasida tarqalgan Polypodiopsida sinfi turlarining zamonaviy PPG I sistematikasi asosida floristik ro‘yxatini tuzish, ularning taksonomik tarkibi, biomorf va anatomik-morfologik xususiyatlari, ekologiyasi hamda bioxilma-xillik darajasini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O‘zbekiston florasida (O‘rta Zarafshon havzasida) tarqalgan Polypodiopsida sinfiga mansub turlarni PPG I sistemasi asosida taksonomik tahlil qilish;

O‘rta Zarafshon havzasida tarqalgan Polypodiopsida sinfi turlarining morfologik va anatomik xususiyatlarini tahlil qilish, barg sathi va vegetativ organlar tuzilishining taksonomik ahamiyatini aniqlash;

O‘rta Zarafshon havzasida tarqalgan Polypodiopsida sinfi turlarining hayotiy shakllarini (biomorf) aniqlash, o‘simliklar qoplamidagi o‘rni va bioxilma-xillik darajasini baholash;

O‘zbekiston florasida (O‘rta Zarafshon havzasida) tarqalgan Polypodiopsida sinfi turlarining GAT xaritalarini tuzish;

Asplenium ceterach va *Cystopteris fragilis* turlarining yer ustki vegetativ organlarida biologik faol birikmalar (aminokislotalar, suvda eruvchi vitaminlar, flavonoidlar) hamda makro va mikroelementlar tarkibini aniqlash va biologik hamda amaliy ahamiyatini baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘rta Zarafshon havzasining qirqquloqsimonlari: *Equisetum arvense, E. ramosissimum, Ophioglossum vulgatum, Salvinia natans, Adiantum capillus-veneris, Aleuritopteris persica, Cystopteris fragilis, Asplenium lepidum subsp. haussknechtii, A. fontanum subsp. pseudofontanum, A. ruta-muraria, A. trichomanes, A. ceterach, Thelypteris palustris, Dryopteris filix-mas, D. komarovii* va *D. mindshelkensis* turlari olingan.

Tadqiqotning predmetini O‘rta Zarafshon havzasida tarqalgan qirqquloqsimonlarning taksonomiyasi, morfologiyasi, o‘simliklar jamoasidagi o‘rni, kimyoviy tarkibi va ekologik xususiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari: Dissertatsiya tadqiqotlarida floristik, an’anaviy qiyosiy morfologik, transekt, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (HPLC), statistik usullar, laboratoriya tahlili va GAT xaritalarini yaratish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston hududidan yig‘ilgan gerbariy namunalarini tahlil qilish natijasida, ilk bor O‘zbekiston florasida qirqquloqsimonlarning 9 ta oila, 12 ta

turkum va 24 ta turdan iboratligi aniqlandi va *Dryopteris mindshelkensis* Pavlov va *Cystopteris altajensis* Gureeva turlari ilk bor qayd etildi.

O‘rta Zarafshon havzasida Polypodiopsida sinfi turlarining konspekti tuzilgan va ularni PPG I sistematikasi bo‘yicha tahlil qilinishi asosida 7 oilaga mansub, 8 turkum va 16 ta tur uchrashi aniqlanib, ularning GAT xaritalari yaratilgan;

Polypodiopsida sinfi turlarining biomorf va ekologik guruhlari aniqlanib, o‘simliklar qoplamidagi o‘rni va bioxilma-xillik darajasi ekologik-statistik usullar asosida baholangan;

tadqiqot hududida tarqalgan *Asplenium ceterach* va *Cystopteris fragilis* turlarining biologik faol moddalar (aminokislota, vitamin, flavonoid) tarkibi hamda 10 turdagi makro va 54 turdagi mikro elementlar miqdori aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: O‘zbekiston florasining yangi nashri uchun ma’lumot tayyorlangan;

O‘rta Zarafshon havzasida tarqalgan Polypodiopsida sinfiga mansub 16 ta turning tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalari tuzilgan va ularni muhofaza qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

O‘rta Zarafshon havzasidan yig‘ilgan qirqquloqsimonlarning 400 dan ortiq gerbariy namunalari Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti gerbariysi (SAMDU), Quaid-i-Azam universiteti gerbariysi (ISL) hamda Shanxay Chenshan botanika bog‘i gerbariysi (CSH) fondlariga topshirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dala va laboratoriya tadqiqotlarida zamonaviy usullar qo‘llanilganligi, olingan natijalar yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, yig‘ilgan gerbariy namunalari “Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti gerbariysi” kolleksiyasi fondida saqlanayotganligi, tadqiqot natijalari tegishli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ilk bor O‘rta Zarafshon havzasi qirqquloqsimonlarining turlar tarkibi aniqlanib, konspekti tuzilganligi: O‘zbekiston florasi uchun yangi turlar (*Dryopteris mindshelkensis* Pavlov va *Cystopteris altajensis* Gureeva) qayd etilgan, hamda biomorfologik va ekologik xususiyatlarni tahlil qilish asosida ularning o‘simliklar jamoasida tutgan o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berilganligi bilan izohlanadi.

Olingan natijalar asosida qirqquloqsimonlarning GAT xaritalarini tuzishda, ularning tarqalish hududlarini aniqlash va muhofaza qilishda keng ko‘lamli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. O‘rta Zarafshon havzasi hududida tarqalgan qirqquloqsimonlar turlari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Hududdan terilgan O‘zbekiston florasi uchun yangi hisoblangan *Dryopteris mindshelkensis* Pavlov turining xloroplast kichik ribosomal RNK nukleotidlar ketma-ketligi National Center for Biotechnology Information (NCBI) ma’lumotlar bazasiga OR824931 raqami bilan kiritilgan. *Dryopteris mindshelkensis* turi gen markerlash orqali nukleotidlar ketma-ketligi aniqlandi va GenBank ma’lumotlar bazasiga joylashtirildi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 6-avgustdagi 4/17-4/4-15673-son ma’lumotnomasi). Natijada, *Dryopteris mindshelkensis* Pavlov turning xloroplast kichik ribosomal

RNK geni nukleotidlar ketma-ketligi xalqaro miqyosda filogenetik tahlil imkonini bergan;

O‘rta Zarafshon havzasi hududidan terilgan 6 ta qirqquloq turi A*diantum capillus-veneris*, *Cystopteris fragilis*, *Asplenium ruta-muraria*, *A. trichomanes*, *A. ceterach* va *Dryopteris mindshelkensis*. Quaid-i-Azam universiteti gerbariysida (ISL) taqdim etilgan (Quaid-i-Azam University, 2024-yil 4-sentabrdagi Ref. No. Herb/921-24 raqamli ma’lumotnomasi). Natijada, universitetning gerbariy fondini boyitish imkonini bergan;

tadqiqot hududidan terilgan 50 ga yaqin Polypodiopsida sinfi turlarining gerbariy namunalari Shanxay Chenshan gerbariysiga taqdim qilingan (Shanghai Chenshan Herbarium, 2025-yil 17-sentabrdagi ma’lumotnomasi). Natijada, Shanxay Chenshan gerbariysi (CSH) fondini boyitish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishining natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop qilishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 5 ta respublika 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rt bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 115 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Polypodiopsida sinfi vakillarining klassifikatsiyasi tarixi va ularning amaliy ahamiyati”** deb nomlangan birinchi bobi ikki bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘limida Polypodiopsida sinfi vakillarining o‘rganilish tarixi, klassifikatsiya tizimlarining shakllanish bosqichlari, Markaziy Osiyo va O‘zbekiston hududida olib borilgan floristik hamda gerbariy tadqiqotlari, shuningdek, qirqquloqsimonlarning ilmiy va amaliy ahamiyati tahlil qilindi. Tarixiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, qirqquloqsimonlar sistematikasining shakllanishi qadimgi davrlardan boshlangan bo‘lib, dastlab Teofrast, A. Zezalpin va K. Linney tomonidan sun’iy klassifikatsiya yondashuvlar qo‘llanilgan. Keyinchalik J. Smith, K. Presl, A. Engler, R. Tryon, A. Taxtadjyan, P. Sermolli kabi olimlarning tadqiqotlari natijasida morfologik, anatomik, sitologik va molekulyar-filogenetik yondashuvlarga asoslangan tabiiy sistemalar shakllangan.

Zamonaviy PPG I (Pteridophyte Phylogeny Group) tizimi Polypodiopsida turlarining filogenetik yaqinligini eng to‘liq aks ettiruvchi tizim sifatida baholandi. Ikkinchi bo‘limda Markaziy Osiyo hududida Polypodiopsida sinfi vakillarining o‘rganilishi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O. Fedchenko, V. Komarov, B. Fedchenko, A. Vvedenskiy, Q. Zokirov va boshqa olimlarning ekspeditsiyalari bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu tadqiqotlar hudud florasining dastlabki asoslarini yaratgan. Bobning ikkinchi “**Polypodiopsida sinfi vakillarining ilmiy va amaliy ahamiyati**” deb nomlangan bo‘limida Qirqquloqsimonlarning (Polypodiophyta) qadimiy sporali o‘simliklar guruhi bo‘lib, tabiiy ekotizimlarda ekologik va geobotanik jihatdan muhim ahamiyatga izohlandi. Ularning ayrim vakillari dorivor, oziq-ovqat va manzarali o‘simlik sifatida foydalanilishi tavsiflandi. *Adiantum capillus-veneris*, *Asplenium nidus*, *Nephrolepis exaltata* va *Dryopteris filix-mas* kabi turlar xona va landshaft dizaynida qo‘llanilishi izohlandi. Qirqquloqsimonlar tuproq namligini saqlash, eroziyaning oldini olish, organik moddalar aylanishi va mikroiqlimni barqarorlashtirishda ishtirok etadi. Ayrim turlar, xususan, *Pteris vittata*, og‘ir metallarni, jumladan, mishyakni to‘plash xususiyati tufayli fitoremediyatsiyada qo‘llaniladi. Ularning tarkibidagi flavonoidlar, polifenollar, aminokislotalar va vitaminlar farmatsevtika hamda biotexnologiya uchun istiqbolli biologik resurs hisoblanadi. Shuningdek, qirqquloqsimonlar evolyutsiya, sistematika, genetika, fiziologiya va ekologiya bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarda muhim obyekt sifatida foydalaniladi. Shu bois O‘rta Zarafshon havzasida tarqalgan Polypodiopsida vakillarining tur tarkibi, tarqalishi va ekologik xususiyatlarini o‘rganish hudud biologik xilma-xilligini baholash hamda ularni muhofaza qilishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot olib borilgan joyning tabiiy-geografik xususiyatlari, tadqiqot obyekti va uslublari”** nomli ikkinchi bobida O‘rta Zarafshon havzasining tabiiy-geografik sharoiti, Polypodiopsida sinfi vakillarining tadqiqot obyektlari sifatidagi o‘rni hamda ularni o‘rganishda qo‘llanilgan kompleks metodlar yoritilgan. Tadqiqot hududi sifatida O‘rta Zarafshon havzasi tanlangan bo‘lib, ushbu hudud Zarafshon vodiysining o‘rta qismida joylashgan va shimoldan Turkiston-Nurota tizmalari, janubdan esa Zarafshon-Hisor tog‘ tizmalari bilan chegaralangan. Hududning relyefi tog‘li, tog‘ oldi va allyuvial-prolyuvial tekisliklardan tashkil topgan bo‘lib, balandlikning 300 m dan 1800 m gacha o‘zgarishi o‘simlik qoplami, ayniqsa qirqquloqsimonlarning ekologik tarqalishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Iqlimi kontinental bo‘lib, yozning issiq va quruq, qishning nisbatan sovuq kelishi, yog‘inlarning hudud bo‘yicha notekis taqsimlanishi, nam biotoplarning shakllanishida muhim ekologik omil sifatida baholandi. Ayniqsa, Omonqo‘ton, G‘ussoy, Ohaliksoy kabi soy havzalari, qoyali daralar, buloq atroflari va tog‘ yonbag‘irlari qirqquloqsimonlarning asosiy ekologik nishalari ekanligi aniqlandi. Tadqiqot obyektlari sifatida O‘rta Zarafshon havzasida uchraydigan 16 tur qirqquloqsimonlar o‘rganildi. Ularning floristik tarkibi, tarqalishi, ekologik xususiyatlari, morfologik va anatomik belgilarini aniqlash maqsadida 2022-2024 yillar davomida keng qamrovli dala tadqiqotlari olib borildi.

Tadqiqot metodologiyasi ko‘p yo‘nalishli bo‘lib, floristik, geobotanik, ekologik, anatomik, biokimyoviy va molekulyar-genetik usullarni o‘z ichiga oldi. Dala tadqiqotlarida marshrutli kuzatish, transekt va 1×1 m setka o‘rnatish usullari qo‘llanildi, GPS va Google Earth Pro yordamida koordinatalar aniqlashtirildi. Gerbariy materiallari yig‘ilib, TASH, SAMDU va MW gerbariy namunalari bilan solishtirildi. Taksonomik identifikatsiyada “O‘zbekiston florasi”, “O‘rta Osiyo o‘simliklar aniqlagichi”, IPNI, GBIF va POWO bazalaridan foydalanildi.

Anatomik tadqiqotlarda barg epidermisi Ndukwe va Okoli usuli asosida o‘rganilib, epidermal hujayralar, og‘izchalar, trixomalar va kutikula xususiyatlari mikroskopik tahlil qilindi. Ekologik tahlillarda namlik, gidrologik rejim, nisbiy suv miqdori, substrat namligi va suv tanqisligiga chidamlilik ko‘rsatkichlari asosida qirqquloqsimonlar kseromezofit, eumezofit, gigromezofit va gidrofit guruhlarga ajratildi. Yorug‘lik ekologiyasi bo‘yicha turlar stsiofit, stsio-geliofit, fakultativ geliomezofit va geliofit guruhlarga ajratilib, ularning mikroekologik moslashuvlari baholandi. Bioxilma-xillikni statistik baholashda Simpson, Bray-Kurtis va Shannon-Viner indekslari qo‘llanilib, tur tarkibi va populyatsion tuzilmaning ekologik differensiasiyasi aniqlandi.

Molekulyar-genetik tahlilda *Dryopteris mindshelkensis* turining nukleotidlar ketma-ketligi CTAB usuli asosida ajratildi. Biokimyoviy tadqiqotlarda *Asplenium ceterach* va *Cystopteris fragilis* turlarida aminokislotalar, vitaminlar va flavonoidlar yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YUSSX) asosida tahlil qilindi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbekiston florasida Polypodiopsida sinfining o‘rni, taksonomik tarkibi, morfologik va anatomik tuzilishi”** deb nomlanib, birinchi bo‘limi “O‘zbekiston florasidagi Polypodiopsida sinfi turlarining gerbariylar tahlili”da O‘zbekiston hududidan turli yillar davomida yig‘ilgan Polypodiopsida sinfiga mansub gerbariy namunalari, jumladan, Botanika instituti qoshidagi O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH), Samarqand davlat universiteti gerbariysi (SAMDU), Moskva gerbariysining (MW) elektron bazasi hamda Global Biodiversity Information Facility (GBIF) ma’lumotlar bazasida qayd etilgan turli xorijiy gerbariylarda (LE, US, NSK, NS, MICH, S, BC, TU, OULU, BR, MA, NY, H, K, BM, WIS va boshqalar) saqlanayotgan namunalar tahlil qilindi va ularning yig‘ilgan manzillari aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekiston hududidan terilgan gerbariylarning joylashgan hududlari.

TASH fondida Polypodiopsida sinfiga mansub turlarning 2944 ta gerbariy nusxalari mavjud bo‘lib, ularning 1632 tasi Tojikiston, Turkmaniston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston hududlaridan terilgan. O‘zbekiston hududidan terilgan gerbariylar miqdori esa 812 tani tashkil qilib, 9 ta oila, 12 ta turkum va 24 ta turdan iborat. Bundan tashqari MW gerbariysining elektron bazasida turli yillar davomida O‘zbekiston hududidan yig‘ilgan 9 ta oila 12 turkumga mansub, 16 turning 53 ta gerbariy nusxasi saqlanishi aniqlandi. Gerbariy namunalari botanik-geografik rayonlar bo‘yicha tarqalishi tahlil qilinganda, ularning asosiy qismi Tog‘li O‘rta Osiyo provinsiyasida (92,2%) tarqalgan. Mazkur provinsiya tarkibidagi G‘arbiy Tyon-Shon (21 ta tur), Farg‘ona-Oloy (12 ta tur), Nurota (5 ta tur), Kuhiston (14 ta tur), G‘arbiy Hisor (9 ta tur) va Hisor-Darvoz (10 ta tur) okruglari qirqquloqsimonlar turlar xilma-xilligi jihatidan nisbatan boy hududlar hisoblanadi. Turon provinsiyasida esa qirqquloqsimonlarning tarqalishi nisbatan cheklangan (7,8%) bo‘lib, ular asosan daryo vodiylari, suv havzalari va namligi yetarli bo‘lgan hududlarda qayd etilgan.

Ikkinchi bo‘limida O‘rta Zarafshon havzasida tarqalgan Polypodiopsida sinfi vakillarining taksonomik tarkibi PPG I (Pteridophyte Phylogeny Group) sistemasi asosida tahlil qilindi. Polypodiopsida sinfi tarkibida 3 ta kichik sinf Equisetidae, Ophioglossidae va Polypodiidae vakillari aniqlanib, Marattiidae kichik sinfi turlari uchramadi. Hudud florasida jami 16 ta tur, 8 ta turkum va 7 ta oilaga mansub qirqquloqsimonlar qayd etildi. Taksonomik tarkib bo‘yicha eng yuqori xilma-xillik Polypodiidae kichik sinfiga tegishli bo‘lib, u umumiy turlarning 75% ini tashkil etdi. Oilalar kesimida esa Aspleniaceae (31%) eng ko‘p tarqalgan oila bo‘lib, undan keyingi o‘rinda Dryopteridaceae (25%) turadi. Qolgan oilalar Equisetaceae va Pteridaceae (13% dan), Ophioglossaceae, Salviniaceae va Cystopteridaceae (6% dan) nisbatan kam tarqalgan (2-rasm).



2-rasm. O‘rta Zarafshon havzasi Polypodiopsida sinfi oilalar kesimida taqsimlanishi.

Bobning uchinchi **“O‘rta Zarafshon havzasi qirqquloqsimonlarining konspekti”** bo‘limida O‘rta Zarafshon havzasida tarqalgan Polypodiopsida sinfi vakillarining konspekti tayyorlandi. Konspektga turlarning taksonomiyasi, tip

gerbariysi ma’lumotlari, morfologiyasi, ekologiyasi, tarqalishi, tadqiqot hududida to‘plangan gerbariylari, ahamiyati, etimologiyasi aniqlandi. Morfologik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, *Equisetum* turkumiga mansub turlar (*E. arvense, E. ramosissimum*) segmentlangan, bo‘g‘inli poya tuzilishi bilan ajralib turadi. *E. arvense* turida bahorgi generativ va yozgi vegetativ poyalar aniq farqlanadi, sporangiylar esa alohida strobillarda joylashadi. *E. ramosissimum* esa ko‘proq shoxlangan, qattiq poyali bo‘lib, vegetativ ko‘payish kuchli rivojlangan. *Ophioglossum vulgatum* turida morfologik jihatdan sodda tuzilish kuzatilib, har yili faqat bitta barg hosil bo‘lishi, uning ikki qismdan vegetativ va sporangiyli segmentdan iboratligi bilan ajralib turadi. Ushbu turda gametofit yer ostida rivojlanishi va mikorizaga bog‘liqligi qayd etildi. Suv muhitiga moslashgan *Salvinia natans* turida barglar geterofilli tuzilishga ega bo‘lib, yuqori barglar fotosintez uchun, pastki barglar esa suv muvozanatini saqlash va oziqa moddalarni singdirish uchun xizmat qiladi Sporangiylar suv osti barglarida joylashib, murakkab ko‘payish sikliga ega (3-rasm).



3-rasm. *S. natans* turining umumiy ko‘rinishi (a-yashash muhiti, b-suzuvchi barglar, c-trixoma, d-ildizga aylangan barg, e-ildiz).

Adiantum capillus-veneris va *Aleuritopteris persica* turlarida barg plastinkasi mayin, ko‘p marta patsimon qirqilgan bo‘lib, issiq va qurg‘oqchil muhitga moslashgan tuksimon va pardasimon tuzilmalar rivojlangan. *Cystopteris fragilis* turida esa nozik, uch karra patsimon qirqilgan barglar, yumshoq soruslar va ingichka spora tuzilmalari kuzatilib, nam va soyali muhitga moslashuv aniq ifodalangan. *Asplenium turkumiga* mansub turlar (*A. trichomanes, A. ceterach, A. ruta-muraria* va *A. ceterach*) barg tuzilishining turli darajada qirqilganligi, soruslarning chiziqsimon yoki qalami shaklda joylashuvi hamda qurg‘oqchil muhitga chidamliligi bilan ajralib turadi. *Thelypteris palustris* turi esa nam, botqoqlik muhitiga moslashgan bo‘lib, uzun, ikki karra patsimon qirqilgan barglari va namlikni yaxshi ushlab turuvchi ildizpoya tizimi bilan xarakterlanadi. *Dryopteris* turkumiga mansub turlar (*D. filix-mas, D. komarovii, D. mindshelkensis*) kuchli rivojlangan ildizpoya, yirik barg plastinkasi va soruslarning buyraksimon shakli bilan ajralib turadi.

Bobning to‘rtinchi bo‘limi Qirqquloqsimonlar turlari barg sathining anatomik tahliliga bag‘ishlangan. Barg sathining anatomik tuzilishi adaksial va abaksial epidermis, barg og‘izchalari (stoma), trixomalar hamda antiklinal devorlar morfologiyasi asosida qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari barg epidermisi va mikromorfologik belgilar tur va turkum darajasida muhim diagnostik mezon ekanligini ko‘rsatdi. Polypodiopsida sinfi turlarida epidermis hujayralari shakli ko‘pburchak, cho‘zinchoq, yumaloq-ko‘pburchak yoki notekis ko‘rinishda bo‘lib, ularning joylashuvi ekologik sharoit va sistematik mansublikka bog‘liq ravishda farqlanadi. *Asplenium, Dryopteris* va *Cheilanthes* turlarida epidermis hujayralari ko‘proq notekis-ko‘pburchakli, antiklinal devorlari esa to‘lqinli shaklda kuzatildi. *Equisetum* turlarida epidermis hujayralari cho‘zinchoq va qalin devorli bo‘lib, barg og‘izchalari chuqur joylashganligi bilan xarakterlandi. *S. natans* turida esa suv muhitiga moslashuv natijasida barg og‘izchalarining abaksial sathda yo‘qligi qayd etildi.

Barg og‘izchalari tuzilishi bo‘yicha anomotsitik va paratsitik tiplar ustunlik qilishi aniqlandi. Anomotsitik tip ko‘proq *Asplenium, Adiantum, Cheilanthes* va *Dryopteris* turlarida, paratsitik tip esa *C. fragilis* hamda *T. palustris* turlarida kuzatildi. *E. arvense* va *E. ramosissimum*da barg og‘izchalarning asosan abaksial yuzada chuqur joylashuvi transpiratsiyani boshqaruvchi muhim moslanish belgisi sifatida baholandi (4-rasm).



4-rasm. Polypodiopsida turlari barg sathining tuzilishi (10 mkm). *A. capillus-veneris* (a-adaksial, b-abaksial), *C. fragilis* (c-adaksial, d-abaksial), *A. ruta-muraria* (e-adaksial, f-abaksial), *A. trichomanes* (g-adaksial, h-abaksial).

Trixomalar tuzilishi va tarqalishida ham sezilarli farqlar kuzatildi. Petrofit turlarda, xususan *A. ceterach*, *A. persica* hamda *D. mindshelkensis* da ko‘p hujayrali yoki zich tukli trixomalar rivojlangan bo‘lib, ular suv yo‘qotilishini kamaytirish va yuqori haroratdan himoyalanishga xizmat qiladi (5-rasm).



5-rasm. Polypodiopsida turlari barg sathining tuzilishi (10 mkm). *A. ceterach* (a-adaksial, b-abaksial), *D. mindshelkensis* (c-adaksial, d-abaksial).

S. natans barglaridagi maxsus yulduzsimon tukchalar esa suv yuzasida suzishni ta'minlovchi muhim ekologik moslanishdir. Gigrofit turlarda, jumladan *O. vulgatum* va *T. palustris* da trixomalar kam yoki deyarli uchramaydi.

Mikromorfologik tahlillar asosida barg sathi anatomiyasi Polypodiopsida turlarining ekologik moslashuv strategiyalarini yaqqol ifodalashi aniqlandi. Kseromorf turlarda qalin epidermis, zich trixomalar va kamaygan stoma soni; mezofitlarda o‘rtacha anatomik ko‘rsatkichlar; gidrofit guruhida esa stomalarning reduksiyasi yoki yo‘qligi kuzatildi. Anomotsitik va paratsitik tipdagi barg og‘izchalarning tarqalishi, ularning o‘lchamlari va joylashuvi tur darajasida farqlanish uchun ishonchli belgi ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“O‘rta Zarafshon havzasida tarqalgan Polypodiopsida sinfi turlarining bioxilma-xilligi va ayrim turlardagi biologik faol birikmalar tarkibi”** nomli to‘rtinchi bobi uch bo‘limdan tashkil topgan. O‘rta Zarafshon havzasida tarqalgan Polypodiopsida sinfi turlarining ekologik tahlili ularning yashash muhiti, namlik rejimi, yorug‘likka bo‘lgan talabi hamda substrat sharoitiga moslashuv xususiyatlari aniqlandi. Hududning kontinental iqlimi yozning issiq va quruq, qishning esa sovuq bo‘lishi qirqquloqsimonlarning asosan tog‘ vodiylari, soy bo‘ylari, buloq atroflari, qoyatosh yoriqlari va suv havzalari kabi mikroekotoplarda tarqalishiga sabab bo‘lishi izohlandi.

O‘rta Zarafshon havzasi pteridoflorasi tarkibida namlikka bo‘lgan munosabatiga ko‘ra kserofit guruh turlari aniqlanmadi. Bu esa hududda uchraydigan qirqquloqsimonlarning to‘liq qurg‘oqchil sharoitlarga emas, balki namlik saqlanuvchi mikroekotoplarga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Turlarning asosiy qismi mezofit guruhiga mansub bo‘lib, jami 15 tur (93,8%) qayd etildi. Mezofitlar o‘z navbatida kseromezofit, eumezofit va gigromezofit guruhlarga ajratildi (6-rasm). Kseromezofitlar 5 tur (31,3%) bilan ifodalanib, *A. ruta-muraria, A. lepidum subsp. haussknechtii, A. fontanum subsp. pseudofontanum, A. ceterach* va *Aleuritopteris persica* kabi turlarni o‘z ichiga oldi. Ushbu turlar quruqroq qoyali substratlarda uchrab, qalin kutikula, chuqurlashgan barg og‘izchalari va kseromorf anatomik belgilar bilan tavsiflandi.

Eumezofitlar eng yirik ekologik guruh bo‘lib, 8 tur (50%) ni tashkil etdi. Bu guruhga *E. arvense*, *E. ramosissimum*, *A. trichomanes*, *C. fragilis*, *A. capillus-veneris*, *Thelypteris palustris*, *D. komarovii* va *D. mindshelkensis* kirib, ular o‘rtacha namlikka ega soy, jarlik va tog‘ oldi hududlarida keng tarqalganligi bilan

xarakterlandi. Gigromezofitlar 2 tur (12,5%) *O. vulgatum* va *D. filix-mas* bilan ifodalanib, doimiy nam yoki mavsumiy suv bosadigan substratlarga moslashganligi aniqlandi.



6-rasm. O‘rta Zarafshon havzasida tarqalgan qirqquloqsimonlarning suvga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra ekologik guruhlari.

Gidrofitlar esa faqat bitta tur *S. natans* bilan namoyon bo‘lib, suv muhitiga to‘liq moslashgan yagona vakil sifatida qayd etildi.

Yorug‘likka bo‘lgan munosabatiga ko‘ra olib borilgan tahlillar natijasida O‘rta Zarafshon havzasida o‘rganilgan 16 ta tur to‘rtta ekologik guruhga ajratildi. Ularning 8 tasi (50%) stsio-geliofitlar, 4 tasi (25%) stsiofitlar, 2 tasi (12,5%) geliofitlar va 2 tasi (12,5%) fakultativ geliomezofitlar guruhiga mansubligi aniqlandi. Geliofitlar guruhiga *E. arvense* va *E. ramosissimum*, stsio-geliofitlar guruhiga *O. vulgatum*, *A. capillus-veneris*, *A. persica*, *C. fragilis*, *A. lepidum subsp. haussknechtii*, *A. fontanum subsp. fontanum*, *A. trichomanes* va *A. ceterach*, stsiofitlar guruhiga *A. ruta-muraria*, *T. palustris*, *D. filix-mas* va *D. komarovii*, fakultativ geliomezofitlar guruhiga esa *S. natans* va *D. mindshelkensis* kiritildi. Stsio-geliofitlarning yuqori ulushi qirqquloqsimonlarning yorug‘lik sharoitlariga nisbatan keng ekologik moslanish diapazoniga ega ekanligini ko‘rsatadi. Geliofitlarning ochiq va yorug‘lik kuchli tushadigan, stsiofitlarning esa soyali va nam biotoplarga xosligi tadqiqot hududi yorug‘lik rejimining turli ekologik sharoitlarni shakllantirishdagi muhim ahamiyatini ko‘rsatadi.

O‘rta Zarafshon havzasida tarqalgan Polypodiopsida sinfi turlarining bioxilma-xilligini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarda, sinf vakillarining bioxilma-xilligi transekt va setkalar qo‘yish asosida turli ekologik hududlarda (Omonqo‘ton, Zarafshon milliy tabiat bog‘i, Pangat, Ohaliksoy, Damxo‘ja va Kattaqo‘rg‘on suv ombori atrofi) kompleks baholandi. Tahlillarda Simpson, Shannon-Viner va Bray-Kurtis indekslaridan foydalanildi. Natijalar hudud pteridoflorasining bioxilma-xilligi relyef, balandlik gradienti, namlik rejimi, mikroiqlim va antropogen bosim bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatdi. Urgut tumani Omonqo‘ton soyi hududida bioxilma-xillik eng yuqori ko‘rsatkichlardan birini namoyon etdi. Bu hududda 6 ta oila, 7 ta turkum va 13 ta turga mansub 490 ta individ qayd etildi. Simpson indeksi bo‘yicha bioxilma-xillik darajasi 72,4% ni tashkil etdi. Dominant turlar *E. arvense*, *E. ramosissimum* va *C. fragilis* bo‘lib, jami individlarning (86,3%) asosiy qismini tashkil qildi. Hududga qo‘yilgan 6 ta transektning Bray-

Kurtis koeffitsiyenti tahlil qilindi. Unga ko‘ra II va III transektlar orasida koeffitsiyenti qiymati eng past bo‘lib, 0,308 ni, IV va VI transektlar o‘rtasidagi 0,858 ni tashkil etdi. V va VI transektlar orasidagi qiymatning 1,0 ga teng bo‘lishi esa ular o‘rtasida umumiy tur tarkibining mavjud emasligini ko‘rsatadi. Shannon-Viner indeksi 5 ta transektda ijobiy korrelyatsiyani va birinchi transektda salbiy korrelyatsiyani namoyon qildi (7-rasm).



Figure 4. The Shannon-Wiener Index (H) variance in transects (I-VI)

7-rasm. Omonqo‘ton soyiga o‘rnatilgan transektlarning korrelyatsiyasi (Shannon-Viner).

